



O'ZBEK TILIDA JARGON VA UNGA YONDOSH HODISALAR

Rahimova Z. Sh.

TerDU doktoranti

Annotatsiya: Maqolada chegaralangan leksik birlik sanalgan jargonlar, shuningdek, argo va slenglarga ta'rif va tavsif keltirilgan. Misollar vositasida dalillangan. Argo va slenglarning jargonga o'xshash va farqli tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jargon, argo, sleng, yoshlar jargon, sinfiy dialekt, sotsiolekt.

Аннотация: В статье дается определение и описание жаргона, представляющего собой ограниченные лексические единицы, а также argo и сленга. Доказано примерами. Выделены сходства и различия между жаргоном и аргом, сленгом.

Ключевая слова: жаргон, argo, сленг, молодежный жаргон, сословный диалект, социолект.

Annotation: The article provides a definition and description of jargons, as well as argo and slang, which are limited lexical units. Proved by means of examples. The similarities and differences between jargon and argo, slang are highlighted.

Key words: jargon, argo, slang, youth jargon, class dialect, sociolect.

So'zlovchi va tinglovchi muloqot jarayonida leksik birliklardan unumli foydalansagina ko'zlagan maqsadga erishadi. Bu jarayonda so'zlovchi va tinglovchining yoshi, jinsi, dini, ijtimoiy kelib chiqishi ham muhim rol o'ynaydi. Quyida muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi bilan bog'liq nutqiy birliklar to'g'risida fikr yuritimiz.

Tilning kommunikativ vazifasi bilan birga estetik vazifasi haqida ham to'xtalish lozim. Chunki, so'zlovchi o'z fikrlarini qanday ifodalashni, tinglovchiga aniq yetkazib berishni o'ylaydi va o'ziga xos usul tanlaydi. Aynan shu jarayonda tilning estetik vazifasi yuzaga chiqib boshlaydi. Ishlatilish darajasiga ko'ra tilimizdagi so'zlarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

1. **Umumxalq ishlatadigan so'zlar** – kundalik turmushda hammaning nutqida tez-tez qo'llanadigan so'zlardir. Bular faol so'zlar ham deyiladi.

2. **Umumxalq ishlatmaydigan so'zlar** – turli sabablarga ko'ra kundalik turmushda hammaning nutqida ham tez-tez qo'llanavermaydigan so'zlardir. Bunday birliklar nafaol so'zlar ham deyiladi. Atamalar, shevaga xos so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, eskirib qolgan so'zlar, neologizmlar, jargon so'zlar, dialektal so'zlar va shu kabi barcha uchun birdek tushuncha ifodalamaydigan so'zlar nafaol so'zlardir.





Asosan og‘zaki nutq jarayonida ijtimoiy guruhlar yoki professional guruhlar (ko‘pincha sun‘iy, yashirin yoki shartli) faqat o‘zlari uchun tushunarli bo‘lgan ko‘p sonli so‘zlar va iboralardan foydalanadi. O‘zbek adabiy tilida ularni bir nechta turga bo‘lib o‘rganamiz:

Jargon [fr. jargon - ma‘lum bir guruhga oid so‘z] – biror ijtimoiy va professional guruhlariga xos, faqat ularning o‘zi tushunadigan va adabiy tildan biroz farq qiluvchi til; bundan tashqari, bu guruhlar ishlatadigan so‘zlar kamroq yopiq va oddiy nutqdan to‘liq ajralmagan bo‘ladi. Masalan: oqi “aroq”, qizili “vino”, strelka “uchrashuv”, dodasi “biror narsaning eng zo‘ri” va boshqalar.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida jargon quyidagicha izohlanadi: “Jargon [fr. jargone-ma‘lum bir guruhga oid so‘z]. Biror ijtimoiy yoki professional guruhga xos faqatgina ularning o‘zlari tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so‘z va iboralar jargonlardir” [1, 74]. Jargonlarning eng xarakterli belgisi o‘zaro so‘zlashuv jarayonida tinglovchini o‘zidan past o‘rinda ekanligini ta‘kidlash yoki alqash mazmunini ifodalashdir. Shunga ko‘ra jargonlarning yaratilish yo‘llari ham ko‘pincha tilning so‘z yasash sistemasiga to‘g‘ri kelmaydi. Ular o‘ziga xos sun‘iy, shartli so‘zlardir.

Jargonlar (fransuzcha jargon) aslida “yuqori tabaqa” kishilari nutqiga xos bo‘lib, tor doirada qo‘llanadigan “sinfy dialektlar”, ular ommaga tushunarsiz va umumxalq tiliga yotdir [3:42]. Jargonlar kasbiy nuqayi nazardan ham guruhlanishi mumkin. Kasbiy jargonlarning professional so‘zlardan farqli jihati – ular faqatgina shu soha vakillarigagina tushunarli bo‘ladi. Professional terminlar barcha uchun tushunarli, lug‘atlardan o‘rin egallaganligi bilan ulardan farq qiladi. Jargonlar o‘zbek tilidagi lug‘atlarga deyarli kiritilmagan. Ular asosan jonli nutqda “yashaydi”.

Jargonga yaqin hodisa argo haqida Azim Hojiyev quyidagicha fikr beradi: “Argo [fr. Argot – jargon]. Yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, sportchilar, o‘g‘rilar va b.) o‘ziga xos boshqalar tushunmaydigan leksik birliklardan iborat yasama til” [2, 17]. Jargon va argolarni tadqiq qilish orqali har ikkala birlikning umumiy va xususiy jihatlarni tasniflash mumkin. Umumxalq tilidan farq qiladigan, ammo o‘zining fonetikasi va grammatik tizimiga ega bo‘lmagan kichik ijtimoiy yopiq guruh tili. U yasama til ham deb ataladi. Argoni tushunarli qilib talabalar, sportchilar, o‘g‘rilar, otarchilar, mahbuslar va shunga o‘xshash ijtimoiy guruhlarining o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug‘aviy birliklardan iborat tili desak ham adashmagan bo‘lamiz. Masalan: loy, yakan “barchasi pul ma‘nosini bildiradi”, bedana “to‘pponcha”, zamri “qimirlama”, atamri “ishingni davom ettir”, shuxer “qoch” va boshqalar. Argo yopiq ijtimoiy guruhning tilidir va u keng tarqalgan





ishlatiladigan soʻz birikmalarini toʻliq oʻzgartiradi. Argolar jargonga nisbatan oʻzining *yashirinlik* xususiyati bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular koʻproq jamiyatning yashirin tabaqalari hisoblangan josuslar, jinoyatchilar, oʻgʻrilar, giyohvandlar, fohishalar va boshqa yopiq ijtimoiy guruhlar nutqida uchraydi. “Argotizmlar jargon va ijtimoiy nutqning bir koʻrinishi sifatida tor ixtisoslik doirasiga yoʻnalganligi, qoʻllanilishda shartlanaganligi, sunʼiy yasalishga egaligi, maxfiyligi, salbiy boʻyoqdorlikka egaligi, umum uchun tushunarsiz ekanligi bilan farq qiladi” [4, 333]. Sanab oʻtilgan guruhlar jamiyatda salbiy baholanadigan ishlar bilan shugʻullanishi va oʻzlarining gʻarazli niyatlari fosh boʻlmasligi uchun kodlashtirilgan til birliklaridan foydalanadilar.

Jargonlar koʻpincha tildagi soʻzlarning tovush tomonini oʻzgarishi, buzib qoʻllash, boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish va tildagi mavjud soʻzlarga maʼno berish yoʻli bilan hosil qilinadi. Yoshlar jargoni dunyoning eng tez va eng keng rivojlangan tili hisoblanadi.

Sleng [eng. Ijtimoiy yoki professional jihatdan mustaqil guruh yozuvi; jargon]. Adabiy til normasiga mos kelmaydigan (odatda ifoda rangli) soʻzlardan foydalanadigan til. Sleng soʻzining qachon paydo boʻlgani aniq emas, lekin u ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va oʻsha davrda “haqorat” maʼnosini anglatgan. Masalan: olmaxon “oʻzini oladigan, nozlanadigan odam”, gʻisht “xunuk”, sindirdi “lol qoldirdi” va boshqalar. Bu uch tur ham oʻxshashliklarga va farqlarga ega. Ularning barchasi maʼlum ijtimoiy yoki kasbiy guruhlarining tiliga tegishlidir, ammo soʻzlashuvda va barqarorlik hamda yangilanib turish nuqtayi nazaridan izolyatsiya darajasida farqlanadi. Sleng ham jargon asosida tashkil topgan boʻlsa-da, lekin u jargon va argoga nisbatan keng tarqalgan boʻlib, ijtimoiy va professional guruhlardan tashqariga chiqishi va odatdagi foydalanuvchilar tomonidan nutq sharoitida ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, sleng asosan, yoshlar tilidagi soʻzlar boʻlgani bois uning tarkibi doimiy oʻzgarib turadi va yangilanadi. “Sleng (inglizcha *sling* – otmoq, uloqtirmoq) inlizcha termin hisoblanadi va u ingliz ijtimoiy dialektlari orasida alohida oʻringa ega. Dastlab sleng *slanguage* (*s+language*), *thieves* ning birinchi harfi s tovushiga almashgan *thieves’ language* (*jinoyatchilar tili*) maʼnosini anglatgan. Sleng jargonning bir koʻrinishi sifatida kishilik jamiyatining yoshga doir qatlam vakillarining nutqiy xususiyatlarini namoyon etadi [4, 334]. Sleng Yevropada dastlab salbiy ottenkali soʻzlar sifatida qayd etilgan boʻlsa-da, bugungi kunga kelib uning maʼno maydonida biroz siljish kuzatiladi. Hozirda slenglar nafaqat salbiy, balki ijobiy xarakterda ham boʻlishi mumkin. Uning asosiy xarakterli tomoni, yoshlar oʻzlarini namoyon etish,






“ko‘rsatib qo‘yish”, ajralib turish maqsadida foydalanishlaridir. “Sleng – G‘arb tilshunosligi an‘analariga xos termin sanaladi. “Sleng” terminiga haligacha aniq ta‘rif berilmagan. Turli lug‘atlarda va sotsiolingvistikaga oid adabiyotlarda uning “jargon” (guruh jargon, yoshlar jargoni) terminiga yaqin turishi qayd qilingan” [5, 17]. Muallif Sh. Usmonova slengni ta‘riflay turib “guruh jargon”, “yoshlar jargon” deya o‘rinli ta‘kidab o‘tgan. Sleng jargonning bir ko‘rinishi bo‘lsa-da, u asosan, yoshlar nutqida kuzatiladi.

“Sleng” atamasi leksikologiyada birmuncha kechroq paydo bo‘ldi. Og‘zaki nutqni o‘rganish jarayonida “jargon” va “argo” tushunchalari, tarixiy nuqtayi nazardan, undan foydalanuvchilar guruhining chegaralanganligi va leksik birliklar semantikasining ajratilganligini ko‘ramiz. Shu bilan bir vaqtda og‘zaki nutq til muhiti normalaridan farqli va juda ko‘p sonli kishilarni birlashtiruvchi muhit sifatida mavjudligi ham ma‘lum bo‘ldi. Sleng deganda biz odatda og‘zaki nutq turlaridan birini tushunamiz. U jamiyat tomonidan norasmiy (“maishiy”, “betakalluf”, “ishonchli”) nutq shakli sifatida baholanadi. Sleng o‘z navbatida argo va jargonga xos birliklarni hamda ularning ma‘nolarini metaforik jihatdan o‘zgartirib va kengaytirib o‘zlashtirishi mumkin. Bu yerda nutqning ekspressiv, so‘z o‘yini va zamonaviy neologizmlarga boy sun‘iy shakllantirilgan turi haqida gap bormoqda. O.S. Axmanovanning lug‘atida sleng atamasiga ikkita ta‘rif berilgan: 1. Kasbiy nutqning og‘zaki varianti. 2. Ma‘lum kasbiy yoki ijtimoiy guruhning og‘zaki variant elementlari bo‘lib, ushbu guruhdagi odamlar nutqidan adabiy til yoki umumiy nutqqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ularga aloqasi bo‘lmagan holatda kiradi. Muallif bu lug‘atida slengga ham jargon nuqtayi nazaridan umumiy xulosa bergan.

Xulosa o‘rinda aytish mumkinki, Jargon, argo va sleng – sotsiolektning turlari hisoblanishi barchamizga ma‘lum. Mazkur til shakllarining har biridagi o‘ziga xos xususiyat u yoki bu guruhlarning kasbiy alohidaligi yoki ularning boshqa jamoalardan ijtimoiy cheklanganligi bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda jargon haqida qandaydir ijtimoiy guruhning yopiq nutqiy muloqot shakli sifati haqida gapirish noto‘g‘ri bo‘lar edi: yoshlar jargoni nutqning pasaytirilgan usuli bo‘lib, tengqurlar orasidagi erkin muloqot vositasidir.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилд. –Т., О‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriёти. 2020. –В. 671.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –В. 168.
3. Iminov M., Nu‘monov T., Boboxonova D. O‘zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan. “Namangan” nashriyoti. 2007. –В. 114.
4. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o‘zbek tili. Leksikologiya. –Т., Firdavs-shoh, 2021. –В. 378.
5. Usmonova Sh. va boshqalar. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. –Т., Universitet, 2014. –В. 88.
6. Umurqulov B. AN ESSENTIAL FEATURE OF ARTISTIK DISCOURSE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 10. – С. 242-246.
7. Умуркулов, Б. "Бадиий адабиётда суз." (1993).
8. Курбаназарова Н. Ш. ЛИСОНИЙ ТИЗИМДА ЭТНОГРАФИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ АСПЕКТИ (СУРХОНДАРЁ ТЎЙ МАРОСИМЛАРИ МИСОЛИДА) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 4.
9. Эргашева Д. А. ODIL YOQUBOV ASARLARIDA INSON RUHIY HOLATI IFODALANISHINING LISONIY MANZARASI //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 1.
10. Rakhimova Z. S. ARGO AS A SOCIALLY LIMITED LEXICAL UNIT //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758). – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 146-150.
11. Bakhodir T., Amonturdiyev N. R. LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF TRADER SPEECH //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 2122-2125.

